

ILMIY TADQIQ JARAYONIDA TADQIQOT UCHUN LOZIM BO‘LGAN  
METODOLOGIYA TURLARI

Mushtariy Tojiboyeva

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilmiy tadqiq jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan metodologiya turlari, metodologiya, metodika hamda metod terminlarining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy, falsafiy, umumfan, metodologiya, progress, bilish bosqichi, yondashuv, metodika, ta’limot.

Tadqiqot boshlamoqchi bo‘lgan har bir kishi metodologiyaning

- 1) ijtimoiy;
- 2) falsafiy;
- 3) umumfan

turlarini farqlashi kerak.

**Ijtimoiy metodologiya** – bugungi jamiyatning darajasi qanday tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Misol uchun, bugungi kunda insoniyat texnik, texnologik progressga intilmoqda va bu borada qancha yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Lekin shaxs ma’naviyati qay darajada rivojlanyapti? Bu bo‘yicha tadqiqotlar juda kam olib borilmoqda. Biz o‘zimizning texnik-texnologik taraqqiyotimiz bilan bundan ming oldingi ajdodlarimizning darajasidan ancha yuqoridamiz va bundan faxrlanamiz. Lekin ma’naviy salohiyatimiz, ma’naviy qiyofamiz, ma’naviy darajamiz bilan biz ming avvalgi ajdodlarimizdan qanchalik ustuvorlikka erishdik? Qancha taraqqiy etdik-u, qancha rivojlandik?, degan savollarga javob topmog‘imiz lozim. Insoniyatning to‘la ma’nodagi taraqqiyoti bu – ma’naviy taraqqiyoti. Ana shu ma’naviy taraqqiyot masalalarini o‘rganish shaxsning ma’naviy takomillashuvini tadqiq qilish va amaliy yo‘sinda unga erishish butun dunyo kishilik jamiyatining asosiy muommosi bo‘lib turibdi. Jamiyat mana shuni taqozo etmoqda, jamiyat shu yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borishni talab qilmoqda. Ana bu metodologiya ijtimoiy metodologiyadir.

**Umumfan metodologiyasi** – o‘rganish obyektiga tizimli yondashuv asosida to‘g‘ri qaror qabul qilish metodologiyasidir. Har bir tadqiqotchi o‘zi o‘rganayotgan tadqiqot obyektiga sistema sifatida munosabatda bo‘lishi kerak. Bu umumfan metodologiyasining bir tamoyili. Ushbu tamoyil har birimizning tadqiqotimizda, biz o‘qiyotgan darslik va qo‘llanmalarda yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. O‘qigan manbalarimizda juda ko‘p borliq hodisalari tasnifiga duch kelamiz. Ana shu tasnif borliqqa sistema sifatida munosabatda bo‘lishning bir ko‘rinishi.

Tadqiqot olib bormoqchi bo‘lgan har bir kishi falsafiy metodologiyaning quyidagi jihatlariga alohida e’tibor bermog‘i lozim:

- a) bilim turi/bilish bosqichi (fahmiy / idrokiy);
- b) tadqiq manbayiga yondashishi ( formal / dialektik);
- c) nuqtayi nazari ( materialistik / idealistik) kabilardan har birining eng asosiy tamoyillari (mezonlari, o‘lchov birliklari) bilan tanishishi zaur.

Siz biror til hodisasini, masalan deylik, tillarning paydo bo‘lishi masalasini o‘rganayotgan bo‘lsangiz, aytilgan fikrlarni umumlashtirib, ular asosida yangi bir idrokiy xulosa chiqarasizmi yoki tillarning hozirgi holatini qiyoslab, faktik materiallarni o‘rganib, shularni tahlil – analiz qilish bilan shug‘ullanasizmi? Bu yerda fahmiy yoki idrokiy bilim farqlanib turibdi. Siz buni aniq ajratib olishingiz kerak. Tadqiq manbayiga yondashishda hodisalarni o‘rganmoqchimisiz yoki hodisalar orasidagi munosabatlarni o‘rganmoqchimisiz? Buni ham yaqqol bilib olishingiz kerak. Materialistik yoki idealistik yondashishingizni ham farqlab

olishingiz talab etiladi. Masalan, tilning paydo bo'lishi haqida "Muhokamat ul-lug'atayin" da Navoiy xom-som, yafos avlodining tillari haqida fikrlar bildiradi va buni biz idealistik yondashuv deymiz. Siz tillarning paydo bo'lishiga shu nuqtayi nazardan yondashilgan ishlarni ko'rsangiz, demak, ular masalaga materialistik emas, balki idealistik yondashayotganligi aniq bo'ladi. Ana shu kabilardan har birining eng asosiy tamoyillari bilan tanishishingiz zarur bo'ladi.

**Falsafiy metodologiya** biz yuqorida sanab o'tgan omillarning majmuidan turli-tuman ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, fahmiy asosda olib borilayotgan tadqiqot formal yondashuv asosida materialistik nuqtayi nazardan olib borilayotgan bo'lishi mumkin. Yoki fahmiy bilim formal yondashish asosida idealistik nuqtayi nazardan berilayotgan bo'lishi mumkin. Jumladan, falsafiy metodologiya:

- 1) fahmiy – formal – materialistik;
- 2) fahmiy – formal – idealistik;
- 3) fahmiy – dialektik – materialistik;
- 4) fahmiy – dialektik – idealistik;
- 5) idrokiy – formal – idealistik;
- 6) idrokiy – formal – materialistik;
- 7) idrokiy – dialektik – idealistik;
- 8) idrokiy – dialektik – materialistik kabi 8 umumiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Siz yozayotgan maqolangizda ana shu metodologiyalardan qaysi birida ish ko'rayotganligizni ongli ravishda bilishingiz kerak bo'ladi, ammo tadqiqotda bu haqda yozib o'tirishingiz shart emas. Siz bu haqida mana shu nuqtayi nazarlardan birini avval o'zingizda shakllantirilib olishingiz talab etiladi. Bir paytning o'zida ham materialistik, ham idealistik; bir paytning o'zida ham dialektik, ham formal; bir paytning o'zida ham idrokiy, ham fahmiy yondashish mumkin emas. Avval bittasi, keyin ikkinchisi qo'llanishi mumkin. Lekin bu xulosalarni bir-biriga zidlanuviga olib kelinadigan bo'lsa, ularni birlashtirish to'g'ri emas. Falsafiy metodologiya haqida gap ketganda, ana shu uch omilning yaxlitligini o'zingizning ilmiy dunyoqarashingizda shakllantirib olib, keyin ish ko'rishingizni taqozo etadi.

Ilmiy tadqiqotda metod juda katta ahamiyatga ega. Siz o'rganish obyektini amaliy va nazariy bilishda, dialektik va formal yondashuvda, materialistik yoki idealistik nuqtayi nazardan munosabatda bo'lishda qanday usuldan foydalanasiz? To'g'ri, ular ham usul, ammo ular katta usul va aniq qanday yo'l va qanday usulni tanlagansiz? Shu nuqtayi nazardan metod o'rganish obyektini haqidagi bilimni hosil qilish yoki uni tushuntirish yo'li sifatida beriladi.

Metodning ikkita katta ko'rinishi bor: umumiy metodlar; xususiy metodlar. Umumiy metodlar barcha fanlarda qo'llanadigan metodlar.

**1) Umumiy metodlar:**

Tahlil usulida o'rganish obyektini aqliy yo'l bilan xususiyatlarini alohida jihatlarga ajratib, ana shu jihatlarning har birini alohida-alohida tavsiflashingiz mumkin. Jumladan, siz bir daraxtni o'rganayotgan bo'lsangiz, uning har bir bargini alohida olib, o'rganib chiqishingiz tahlil usuliga misol bo'ladi. Lekin ana shu barglarni tahlil qilish natijasida bilim va xulosalarni umumlashtirishingiz kerak. Siz u barg haqida umumiy xulosa chiqarasiz. Ana bu sintez usuli. Yoki qiyoslash usulida bir daraxtni bargini ikkinchi daraxtning bargiga qiyoslab, ular haqida chog'ishtirma xulosalar chiqarish mumkin. Mana shu usullar fanning barcha sohalarida qo'llanadi.

**2) Xususiy metodlar:** har bir fanning o'ziga tegishli bo'lgan metodlar.

Tilshunoslikning o'zining xususiy metodlari bor. Xususiy metodlar o'rganish obyektining xususiyatidan kelib chiqadi va shu o'rganish obyektining mohiyatini ochishda qulay bo'lgan holatlarda qo'llanadi. Xususiy metodlar bilan [a] fonemasining mohiyatini ochayotganimizda uni [o] fonemasiga qiyoslaymiz, ziddiyatga qo'yamiz. Natijada ular noto'liq ziddiyatga

kirishadi, bu noto'liq ziddiyatning belgisi lablanmaganlik bo'ladi. Lablanmaganlikda [a] fonemasi lablanmagan xususiyati bilan yuzaga chiqsa, [o] fonemasi qisman lablangan, qisman lablanmaganlik xususiyatini namoyon qiladi. Tilshunosligimizda asosiy metodlardan biri ziddiyatga qo'yish metodi. Bundan tashqari nutq hodisalarini tahlil qilayotganimizda kontekstual metodga murojaat qilamiz. Har bir til hodisasini nutqiy qurshovda, matnda, kontekstda, og'zaki va yozma nutq sharoitida tekshiradi va ana shu tekshirishlarimizni umumlashtiramiz. E'tibor bersangiz, bir tadqiqotning o'zida bir nechta metodlarni qo'llash mumkin. Albatta, tadqiqotchi tadqiqotni bajarayotgan vaqtda metodlar haqida o'ylab o'tirmaydi. U narsa va hodisalarning – o'rganish obyektining mohiyatini ochish, o'z ilmiy tadqiqotida qo'yilgan vazifani bajarish uchun reja tuzib olgandan keyin ana shu reja asosida o'zining yondashuvlarini ongsiz ravishda belgilab olishi mumkin. Tadqiqot bajarilgandan keyin qanday metodlardan foydalangani haqida o'ylab ko'rishi mumkin.

Metodika, metod va metodologiya tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar va ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Qachonki metodologiya haqida gap ketsa, metod va metodika tushunchalari haqida ham fikr yuritiladi. Metodika ilmiy tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biri. U birinchidan, metodlar haqidagi ta'limotni anglatadi, ikkinchidan, biror ishni bajarishda metodlarni qo'llash jarayonini anglatadi. Demak, metodika 2 xil ma'noda qo'llaniladi: 1) metodlar haqidagi ta'limot; 2) biror ishni bajarishda metodlarni qo'llash jarayoni. Ana shu 2ta narsani ham ta'limot, ham jarayon farqlovchi semalarni aniq eslab qolish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhamedov B.E., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>